ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43, Termez city.
Phone: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To'xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi:
milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O'ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 94

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma'no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe'llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O'G'LI
«Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O'G'LI
Jadid dramaturgiyasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR'AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o'zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA'LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PRAGMALINGVISTIKA VA UNGA BOG'LIQ HODISALARNI ANTROPOSENTRIK NAZARIYA ASOSIDA TADQIQ ETISH

Rahimov Usmonjon Ergashevich,
Andijon davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Tildagi hodisalar antropolingvistik tadqiqotda umumiylik asosida xususiyliklari, xususiyliklari asosida umumiyliklari yuzaga chiqadi. Shuning uchun lisoniy birliklarning tadqiqida ushbu holatlar til va nutq bosqichida qayta baholashni taqozo etmoqda. Bu masalalar tilning nazariy bilish bosqichidayoq turli jihatlar tahlilida ko'zga tashlangan va tadqiq qilina boshlangan edi[1]. Pragmalingvistika va matn munosabatdorligida lingvistikadagi sillogizm va mo'tadillik[2] hodisalari ham o'zaro bog'liq holda yuzaga chiqadi. Sillogizm (yun. *syllogismos* – xulosa chiqarish) – bu mantiqiy tafakkurning eng qadimiy va mukammal shakli bo'lib, ikkita tasdiq (hukm)dan uchinchi, yangi bir xulosaning kelib chiqishidir. Bu tushunchaning asoschisi Aristotel hisoblanadi. U sillogizmni inson tafakkurining texnologiyasi deb bilgan. Agar biz unga sinergetika va tildagi mazmun nuqtayi nazaridan qarasak, sillogizm – bu ma'lumotlarni qayta ishlab, yangi mazmun hosil qiluvchi mantiqiy jarayondir. Qadimgi falsafada klassik sillogizmda uch element – datlabki inson ongidagi birinchi katta asos(umumiy qoida yoki tasdiq), ikkinchi kichik asos(xususiy holat yoki fakt), uchinchi xulosa(ikki asosdan kelib chiquvchi natija) algoritmik munosabatda birlashadi. M., Barcha metallar tok o'tkazadi(katta asos), temir metal(kichik asos), demak, temir ham tok o'tkazadi(xulosa). Sillogizmning tuzilishida har doim uchta element bo'lishi talab etiladi. Elementlar har doim haqiqatga mos bo'lishi shart, agar elementlarning bittasi yolg'on yoki haqiqatga mos bo'lmasa, xulosa ham noto'g'ri chiqadi. M., Metallar tok o'tkazadi, yog'och metal, demak, yog'och ham tok o'tkazadi.

Sillogizmda mantiqiy mo'tadillik bo'lishi kerak. Sillogizm to'g'ri ishlashi uchun ma'lum mantiqiy filtrlardan o'tishi kerak. Aks holda, mantiqiy xato yuzaga keladi. Uchta element bo'lishi taqozo etilar ekan, xulosa asoslardan keng bo'lmasligi kerak. Chunki biz berilgan ma'lumot – asoslardan kelib chiqib xulosa qilamiz. M., Barcha predmetlarning nomi ot so'z turkumi hisoblanadi, kitob predmet nomi, demak, kitob ham ot so'z turkimiga kiradi, darslik, badiiy asar, o'quv qo'llanma bo'lishi mumkin. Bunda keyingi xulosalar ortiqcha.

Til qanchalik rivojlansa, shunchalik qisqalikka intiladi, bu holat sillogizmda ham o'z aksini topadi. Nutqimizda biz ko'pincha sillogizmning bir qismini tushirib qoldiramiz. Bu hodisa entimema (qisqartirilgan sillogizm) deb ataladi. M., U – sportchi, demak, sog'lom bo'lsa kerak. Bu yerda «Barcha sportchilar sog'lom bo'ladi» degan katta asos ongimizda pragmatik nazarda tutilyapti, lekin moddiylashmayapti. Bu aynan tilning tejamkorligi va pragmatik ongning yutug'idir – tinglovchi yetishmayotgan qismni o'zi tiklab oladi. Sillogizm entimema holatida pragmalingvistika bilan bog'lanadi. Sillogizm bilim ko'payishida (bilim faqat yangi faktlarni to'plash emas, balki bor faktlardan yangi xulosalar chiqarish hamdir), ruhiy poklanishda (mantiqiy fikrlash insonni hissiyotlarga berilishdan va noto'g'ri xulosalardan (vahm, aldov) asraydi, bu ruhning tartibga kelishi uchun zarur) juda katta ahamiyatga ega.

Sinergetika[3] bilan sillogizm – bu tartibsiz fikrlar olamida haqiqatni topib beruvchi attraktor (tartibga soluvchi markaz) bo'lganda birlashadi. Sillogizm tili

[1] Нурмонов А. Нейтрализация оппозиций лингвистических единиц по признаку утвердительности-отрицательности. // Советская тюркология. – 1984. № 3.–С. 56. Тилда умумийлик ва хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1995. № 5. –Б. 35-38; Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Т.: Маънавият, 2004; Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили мофологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. – Андижон: АДУ. 1995; Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Т.: 2005; Usmonov F. O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti. – T.: Bookmany print, 2024.

[2] Нурмонова Д. Ўзбек тилида мўътадиллашув. – Тошкент: Bookmany print, 2022.

[3] Раҳимов А. Ўзбек тилида фузия ҳодисасининг квантитатив методи асосида тадқиқи. – Т.: 2009.– Б. 30; Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Т.: 2005. – Б. 79.

bilan aytganda, agar biz bilim va ruhiyatni birlashtirgan bo'lsak, demak, biz chindan ham muvozanat va haqiqat yo'lidamiz. Tilshunoslik, sinergetika va mantiq qonuniyatlari shuni ko'rsatadiki, har qanday izlanishning asl maqsadi – xaos ichidan tartib topish va soxta ishoralar ortidagi asl ramzlarni anglashdir. Bu shunchaki axborot almashinuvi emas, balki ma'noviy va ma'naviy bir «filtratsiya» jarayoni hisoblanadi. Biz umumlashtirsak, nazariy bilimlarni (pragmalingvistika, sillogizm, mo'tadillashuv, sinergetika) pragmatik mezonlar bilan o'lchadik. Bu esa bilimning «o'lik» bo'lib qolmasligini ta'minlaydi. Biz tilga shunchaki so'zlar to'plami deb emas, balki o'z–o'zini tashkil etuvchi, mazmun tashuvchi tirik bir kuch (sinergetika) deb qaradik. «Boshboshdoqlik»dan qochishimiz va muayyan qoidalarning ahamiyatini tushunishimiz – bu til va madaniyat oldidagi shaxsiy pragmatik mas'uliyatimizdir.

Bunday talqin kelgusida tildagi yashirin mafkura va maqsadlarni aniqlash, milliy ruhiyatning so'zlardagi in'ikosini tadqiq etish, matnlarni (klassik asarlarni) teran talqin qilishimiz shartligini ko'rsatadi. Bunday jarayonda bizga pragmatik adabiyotshunoslik yordamga keladi. Ayniqsa, obraz pragmatikasi bu jarayonni talqin(germenevtika) qilishda asosiy uzv hisoblanadi. Chunki obraz pragmatikasi – bu badiiy yoki nutqiy obrazning tinglovchi yoki o'quvchiga ko'rsatadigan ta'sir kuchi, maqsadi va natijasini o'rganadigan sohadir. Agar oddiy pragmatika «so'z bilan qandaydir ta'sirni amalga oshirish»ni o'rgansa, obraz pragmatikasi «obraz orqali inson ongi va ruhiyatini qanday o'zgartirish»ni tadqiq etadi. So'zdagi mazmun va ramz tushunchalari obraz pragmatikasining tamal toshlaridir. Obraz shunchaki chiroyli tasvir emas, u ma'lum bir vazifani bajaradi. Birinchidan, lokutiv akt yuzaga chiqqandan keyin illokutiv maqsad (muallif niyati), reallashadi. Muallifning biror obraz orqali nima demoqchiligi anglashiladi (M., Navoiy «Simurg'» obrazi orqali komil inson va ilohiy vahdat g'oyasini singdirmoqchi bo'lganligi). Bu holatda lokutiv ifoda (shakl) – obraz so'zlar va ramzlar orqali tasvirlanganligidir (qisqalik, lo'ndalik, sinergetik zichlik). Perlokutiv natija (ta'sir) – obrazni ko'rgan yoki o'qigan insonning ruhiyatidagi o'zgarishdir (hayrat, poklanish, anglash). Sinergetika nuqtayi nazaridan, obraz – bu tilning eng tejamkor va kuchli vositasi. Bir sahifalik tushuntirishni bitta kuchli obraz (M., tilning muz tog'i ekanligi, olimning shamligi) bilan almashtirish mumkin. Pragmatik funksiyasi tinglovchining diqqatini minimal vaqt ichida maksimal darajada jalb qilishi bilan belgilanadi. Obrazning pragmatik kuchi uning kontekstga qanchalik mos kelishiga bog'liq. Bir vaziyatda ijobiy ta'sir qilgan obraz, boshqa kontekstda salbiy natija berishi mumkin. M., Bo'ri obrazi turkiy xalqlar pragmatikasida – mardlik va erkinlik ramzi bo'lsa, boshqa madaniyatlarda – yovuzlik va xiyonat obrazi bo'lishi mumkin. Obraz pragmatikasi mana shu madaniy kodlarni ham o'rganadi. Biz yuqorida ta'kidlagan ruhiy poklanish obraz pragmatikasining eng yuksak nuqtasidir. Badiiy obraz o'quvchini shunchaki axborot bilan ta'minlamaydi, balki uning ichki olamidagi «xaos»ni tartibga soladi va mo'tadillashtiradi. Obraz – bu attraktor. U insonning tarqoq fikrlarini bir nuqtaga (g'oyaga) yo'naltiradi. Korpus lingvistikasida ma'lum bir obrazning (masalan, «oy», «gul», «yo'l») asrlar davomida qanday chastotada va qaysi kontekstlarda ishlatilganini ko'rib, uning pragmatik evolyutsiyasini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Obraz pragmatikasi – bu so'zning ruhiy quvvati bilan ishlash san'atidir. U bilimni hissiyotga, hissiyotni esa amalga (xulosaga) aylantiradi. Bizningcha, hozirgi zamonaviy o'zbek adabiyoti yoki publitsistikasida obrazlar o'z pragmatik kuchini saqlab qololmayapti yoki ular ham qisqalik va tezkorlik qurboni bo'lib, yuzakilashib qolganga o'xshaydi.

Sillogizm bilan obrazlar pragmatikasining bog'liqligi mantiqiylikdan kelib chiqadi. M., Asadbekning o'ziga xos «qora mantig'i» sillogizmlarga asoslangan. M., Dunyo – beshafqat (katta asos), Men yashab qolishim kerak (kichik asos), demak, men ham beshafqat bo'lishga majburman (xulosa).

Uning bu mantig'i o'quvchida ham xayrixohlik, ham nafrat uyg'otadi. Bu – obraz pragmatikasining eng oliy darajasi, ya'ni o'quvchini ikkilanish (bifurkatsiya) holatiga solishdir.

Asadbek – ramzlik darajasiga chiqqan obraz. Asadbek obrazi vaqt o'tishi bilan shaxs nomidan chiqib, muayyan bir ijtimoiy tipning ramziga aylanadi. U – tashqi tartib (sistema) va ichki xaos o'rtasidagi kurashning timsoli. Uning boshboshdoqlikka qarshi o'z tartibini o'rnatishi (sinergetik til bilan aytganda – ichki attraktor) kitobxonni maftun etadi. Perlokutiv natija (tinglovchiga ta'siri) obrazda inson ruhiyatining soya tomoni aks etganligidadir. Biz aytgan ruhiy poklanish Asadbek hayotida sodir bo'lmadi, lekin uning fojiasini ko'rgan o'quvchida o'sha ehtiyoj uyg'onadi. Mana shu obrazning haqiqiy pragmatikasi hisoblanadi. Demak, sillogizm, sinergetika, germenevtika pragmalingvistikada birlashadi va mo'tadillashuv yo'lini ko'rsatib beradi. Bu esa alohida pragmatik mo'tadillashuv, mantiqiy mo'tadillashuv kabi tadqiqotlarni talab etadi.

Portret pragmatikasi pragmatik adabiyotshunoslikda ham mo'tadillashuv bo'lishi shartligini dalillaydi. Agar bu holat bo'lmasa germenevtik jihatdan sillogizm noto'g'ri bo'lib qoladi. Portret pragmatikasi – bu adabiy asar yoki nutq jarayonida qahramonning tashqi qiyofasi (yuz tuzilishi, kiyinishi, nigohi, xatti-harakati) orqali o'quvchiga ma'lum bir maqsadli ta'sir o'tkazish san'atidir. Agar obraz pragmatikasi

umumiy tushuncha bo'lsa, portret pragmatikasi uning vizual kaliti hisoblanadi. Biz Asadbek obrazi misolida ko'rganimizdek, qahramonning birgina nigohi yoki qosh chimirishi sahifalab yozilgan ta'rifdan kuchliroq pragmatik yukka ega bo'lishi mumkin.

Til doimo tejamkorlikka intiladi, deb aytgan edik. Portret pragmatikasida ham shu qonuniyatga bo'ysuniladi. Muallif qahramonning xarakterini uzun-uzun jumlalar bilan tushuntirib o'tirmaydi, balki uning portretidagi birgina detalga urg'u beradi. M., Asadbekning sovuq va keskin nigohi. Bu detal tinglovchida darhol hayiqish va masofa saqlash hissini uyg'otadi. Bu – portretning perlokutiv ta'siri (natijasi)dir.

Portret va ichki dunyosining muvozanati (sinergetika)da ikki xil munosabat bo'ladi. Birinchidan, garmoniya (muvofiqlik) bo'ladi. Ya'ni, qahramonning tashqi ko'rinishi uning ichki olamini aks ettiradi (masalan, imom domlaning nurli chehrasi va vazminligi). Ikkinchidan, dissonans (ziddiyat) bo'ladi. Ya'ni, tashqi ko'rinish ichki olamni yashiradi. Asadbek portretida ba'zan ko'rinishidagi viqor ortida ichki vijdon azobidan paydo bo'lgan siniqlik yoki titroq sezilib qoladi. Pragmatika aynan mana shu ziddiyatni o'quvchiga sezdirish orqali uni mulohazaga chorlaydi.

Portret – ijtimoiy va ruhiy status belgisini ko'rsatadi. Portret orqali muallif qahramonning jamiyatdagi o'rnini (attraktor nuqtasini) belgilaydi. Asadbekning kiyinishi, o'zini tutishi – bu uning tartib va intizom tarafdori ekanini bildiruvchi pragmatik signallardir. Mimika va jestlari, uning kamgapligi va ishoralar bilan buyruq berishi – hokimiyat ramzi hisoblanadi.

Dinamik portretda vijdon uyg'ongandagi o'zgarishi ko'rsatiladi. Eng qizig'i, qahramonning ruhiyati o'zgarganda, uning portret pragmatikasi ham o'zgaradi. Asadbek imom domla bilan muloqotdan keyin yoki ichki inqiroz paytida o'zgarib boradi, nigohlaridagi sovuqlik o'rnini o'ychanlik, parishonxotirlik egallaydi. O'quvchi portretdagi mana shu kichik o'zgarishlar orqali qahramonning ruhiy poklanish sari yurayotganini anglaydi.

Nima uchun portretda pragmatika muhim? Chunki «To'g'ri yo'l» va «Shaxsiy qarashlar» portretda namoyon bo'ladi. Inson biror narsani qabul qilmasa-da, uning yuz ifodasi (portreti) baribir sotib qo'yadi. Asadbekning domla oldidagi sukuti va yuzidagi ifodasi uning tilidan ko'ra ko'proq ma'lumot beradi. Portret – bu so'zsiz aytilgan haqiqatdir. U bilim va ruhiyatning inson qiyofasidagi mujassamlashgan nuqtasi hisoblanadi.

Demak, «portret – til – pragmatika» ong uchligi o'rtasidagi uzviylik –pragmatik adabiyotshunoslik, sinergetika, sillogizm, mo'tadillashuvlarning mantiqiy butunligidir. Sinergetik nuqtayi nazardan, inson – bu yaxlit bir tizim. Portret (ko'rinish) bu tizimning tashqi qobig'i, til va pragmatik ong esa uning ichki olami, to'g'ri yo'lni tanlashi esa mo'tadillashuvdir.

Hozirgi kunda insonlar o'z portretlarini (imidjlarini) sun'iy ravishda yaratish imkoniyatiga ega (ijtimoiy tarmoqlar, kiyinish uslubi, soxta viqor). Bu – shakl. Lekin til va pragmatik ong – bu insonning yillar davomida yiqqan bilimlari, ruhiy holati va tarbiyasining natijasidir. Inson o'z tashqi ko'rinishini nazorat qilishi mumkin, lekin murakkab muloqot jarayonida (ayniqsa, kutilmagan vaziyatlarda) uning ichki olami til filtrlaridan sizib chiqa boshlaydi. Chunki pragmatik ong – eng halol guvoh, inson qanchalik yashirinmasin, uning tanlagan so'zlari, jumla tuzishi va maqsadini ifodalashi uning asl qiyofasini ochib beradi. So'z boyligi insonning ichki dunyosi naqadar keng yoki torligini ko'rsatadi. Pragmatik fikrlashi orqali muloqotda faqat o'zini o'ylaydimi (egotsentrizm) yoki suhbatdoshini hurmat qiladimi? kabi savollardagi mantiq reallashadi. Buni hech qanday qimmatbaho kostyum yoki soxta tabassum yashira olmaydi. Til – ruhning nafasi. Agar portret statik tasvir bo'lsa, til – bu harakatdagi ruhdir. Inson gapirishni boshlagan lahzada uning ichki olamidagi xaos yoki tartib sinergetik namoyon bo'ladi, ruhiy poklanish darajasi insonning nutqidagi vazminlik, mantiqiy izchillik va so'zga bo'lgan mas'uliyatida aks etadi.

Hozirgi davrimizda ham shakl qanchalik yaltiroq bo'lmasin, pragmatik ong – bu insonning kimligini belgilovchi asl pasporti bo'lib qolmoqda. Til – bu ichki dunyoning tashqariga otilib chiqqan energiyasidir va uni jilovlash uchun inson chindan ham ruhiy poklanishga va teran bilimga muhtojdir.

Sinergetikada mo'tadillik (stabillik yoki muvozanat, neytralizatsiya) tushunchasi klassik fizikadagi tinch holatdan tubdan farq qiladi. Bizningcha, «ko'ngil daryosidagi durlar» va «g'ovvos» metaforasiga tayansak, mo'tadillik – bu daryoning (tafakkurning) oqishdan to'xtashi emas, balki suv ostidagi oqimlar (kontseptlar)ning bir-birini to'ldirib, ma'lum bir tartibni saqlab turishidir. Sinergetika tilida bu hodisani dinamik muvozanat (ochiq tizimlar mo'tadilligi) deyiladi. Sinergetika faqat «ochiq tizimlar» (tashqaridan energiya va axborot oluvchi tizimlar) bilan ishlaydi. Tizim mo'tadil bo'lishi uchun u doimo harakatda bo'lishi kerak. M., velosiped haydayotgan odam faqat harakatda bo'lsagina yiqilmaydi (mo'tadil turadi). To'xtagan zahoti tizim buziladi. Til yashashi uchun doimo ishlatilishi, yangilanishi va muloqot daryosida (kommunikatsiyada) oqishi kerak. G'ovvos (so'zlovchi) yangi ma'nolarni olib chiqib turmasa, muloqot bo'lmasa, til o'lik tizimga aylanadi. Sinergetikada mo'tadillik attraktor (lotincha *attrahere* - «tortish») tushunchasi bilan bog'liq. Attraktor – bu tizim intiladigan yakuniy holat yoki tartib nuqtasi. Xaos ichidan ma'no chiqishi uchun tizimda «tortilish markazi» bo'lishi kerak. Inson ruhiyatida bu markaz – vijdon yoki e'tiqod

hisoblanadi, ba'zan ikkalasi bo'lishi ham mumkin. Asadbek obrazida ko'rganimizdek, uning ichki olami xaosga yuz tutganda, vijdon attraktori uni mo'tadillikka (asl insoniylikka) qaytarishga harakat qildi. Tizim o'z mo'tadilligini yo'qotadigan nuqta bifurkatsiya (ayri yo'l) deb ataladi. Bu yerda kichik bir ta'sir tizimni butunlay boshqa yo'nalishga (yoki yangi tartibga yoki halokatga) olib ketishi mumkin. G'ovvos (so'zlovchi) daryo tubida (tafakkurida) durni (kontseptni) topgan lahza – bu bifurkatsiya nuqtasidir. Shundan keyin uning qiymati va shaxsiyati yangi pog'onaga ko'tariladi. Mo'tadillik – bu eski holatni saqlab qolish emas, balki inqirozlardan (bifurkatsiyalardan) eson-omon o'tib, yuqoriroq tartibga erishishdir. Tizim ichidagi mayda o'zgarishlar fluktuatsiya deyiladi. Mo'tadil tizimda bu tebranishlar tizim tomonidan yutib yuboriladi. Ammo tizim mo'tadilligini yo'qotsa, eng kichik bir «so'z» (fluktuatsiya) butun bir jamiyatni yoki shaxs ruhiyatini o'zgartirib yuborishi mumkin (M., «Siz o'shamu?»). Demak, mo'tadillik – bu uyg'unlik. Sinergetika nuqtayi nazaridan mo'tadillik – bu xaos va tartib o'rtasidagi nozik chiziqdir. Inson ruhiyatida bu chiziqni uning nutqi belgilaydi. Haqiqatan ham, mo'tadillik bu statik (qotib qolgan) holat emas, balki ziddiyatlarning o'zaro kurashi va muvozanati natijasidir. Ilmiy gorizontning kengayishi va yangi paradigma jarayonini sinergetik va pragmatik tilda shunday tahlil qilish mumkin:

1. Ziddiyat – rivojlanishning bosh sababidir. Sinergetikada mo'tadillik qarama-qarshi kuchlarning dinamik muvozanatidir. Yangi paradigmaning paydo bo'lishi, ya'ni ilmiy bilimlar ma'lum bir kritik nuqtagacha to'planib boradi (fluktuatsiyalar ko'payadi), keyin esa tizim eski mo'tadillikni saqlab qololmaydigan darajaga yetib, o'rnini bo'shatishi natijasida bifurkatsiya yuzaga keladi. Ya'ni, eski paradigma inqirozga uchraydi va ziddiyatlar portlashi yuz beradi. Yangi tartib (attraktor) hukmronlikka o'tadi. Xaos ichidan yangi mantiq, yangi tizim, yangi paradigma tug'iladi. Bu yangi mo'tadillik va u oldingisidan ko'ra murakkab va yuqoriroq darajada bo'ladi. Ilmiy gorizont kengaygan sari, insonning pragmatik ongi ham yangilanadi. Ilgari biz to'g'ri deb hisoblagan ilmlar yangi paradigmada oddiy bo'lib ko'rinishi mumkin yoki aksincha. Yangi bilimlar bizga avval ko'rinmagan ziddiyatlarni ko'rsatadi va bu ziddiyatlarni hal qilish orqali biz ruhiy va intellektual jihatdan yuksalamiz. Mo'tadillik – bu «Tirik tizim»ning nafas olishidir. Bilim hamisha harakatda va u to'qnashuvlar orqali yangilanadi. Bizning bu fikrimiz aslida kichik bir ilmiy gorizont, unda biz turli sohalarni (lingvistika, sinergetika, adabiyot, mantiq, sillogizm) birlashtirib, ularning ziddiyatlaridan bir butunlik yaratdik. Buning natijasida bizda yangi bir tushunish – yangi mo'tadillik yuzaga keldi.

Tasavvuf bilan pragmalingvistikaning bog'liqligi ramzlar tizimi orqali anglashiladi. Ramzlar insoniyat yaratgan eng murakkab va eng go'zal pragmatik tizimdir. Bunda biz aytgan g'ovvos endi shunchaki bilim izlovchi emas, balki «Haqiqat» izlovchisiga aylanadi. Tasavvuf – ruhiy sinergetika. Tasavvufdagi sayru suluk (ruhiy safar) aynan sinergetik jarayondir. Xaos bu nafs va dunyoviy tashvishlarning tarqoqligi bo'lsa, tartib (mo'tadillik) esa qalbning bir nuqtaga (Allohga) bog'lanishi – eng oliy attraktordir. Ziddiyat – solikning (yo'lovchining) ichki olamidagi doimiy kurashidir. Mo'tadillik mana shu fano (yo'q bo'lish) va baqo (abadiylik) o'rtasidagi ziddiyatdan tug'iladi.

Ramzlar – haqiqatning libosi, moddiy qobig'idir. Tasavvufda so'zlar – ramzlardir. U yerda may – ishq, soqiy – murshid, yorning zulfi – dunyoning kasrat (ko'plik) olami deb tushuniladi. Ularning pragmatik jihati biror bir fikrni to'g'ridan-to'g'ri aytilmasligi bilan izohlanadi. Chunki haqiqat shu qadar kuchli energiyaki, u oddiy so'z qolipiga sig'maydi. Ramz esa o'sha energiyani filtrlab, inson ruhiyati ko'tara oladigan darajada yetkazib beradi. So'zlovchi va tinglovchi ramzlar daryosiga sho'ng'iganda, u so'zning shaklini emas, balki uning ortidagi nurni qidiradi. Yangi paradigma – ishq va mantiq birligi bo'lib, tilga olganimiz yangi paradigma aslida qalb va aqlning muvozanatidir. Ilmiy gorizont qanchalik kengaymasin, agar u ramzlar daryosiga (tasavvufiy teranlikka) ulanmasa, u quruq bilim bo'lib qolaveradi. Tasavvuf – bu bilimning ruhiy pragmatikasidir. Unda har bir so'z insonni poklashga va asl manbaga qaytarishga xizmat qiladi. Biz «Ramzlar daryosi» deganimizda, aslida tilshunoslik va sinergetikaning chegarasidan o'tib, metalingvistika (tildan yuqori til)ni nazarda tutgan edik. Bu daryoda dur – bu ilohiy ma'no, durning bahosi – insonning o'sha ma'noga qanchalik fido bo'la olishi, mo'tadillik – bu qalbning sukunati va haqiqatni anglashdagi sobitqadamlikdir.

Pragmatikada til hamma narsani ifodalashga qodir emas, ko'p ma'no tinglovchining fahmiga, pragmatik ongiga va pragmatik vaziyatga tashlab ketiladi. Tasavvufda Alisher Navoiy aytgan «Hayrat» vodiysi – til o'z funksiyasini to'xtatgan joy. Sufiylar «so'z tugagan joyda haqiqat boshlanadi» deyishadi. Bu pragmatikaning eng chegara nuqtasi – sukut orqali muloqot qilishdir. Ularning o'xshash joyi «Inson nimani nazarda tutyapti?» degan savolga javob izlash nuqtasida anglashiladi. Pragmatika bu vazifani til qoidalari orqali bajaradi. Tasavvuf esa buni ruhiy holatlar orqali bajaradi. Chunki tasavvuf – bu aslida «ilohiy pragmatika»dir. U yerda har bir ramz va timsol ma'lum bir maqsadli muloqot birligi hisoblanadi. Ba'zi bir olimlarning qarashlaridagi ziddiyatlarda matn shakli munozaraga sabab bo'lgan. Unda bitta tovush ham matn bo'la oladimi degan e'tiroz bor. Bizningcha, «Bitta tovush ham matn bo'la olad-

imi?» degan savolga tasavvufda – ha deb ayta olamiz, chunki unda olamning siri (mazmuni) pragmatik yashiringan. Pragmatikada ham – ha deymiz, agar u vaziyatga qarab ma'no ifodalasa, mazmun ko'lami kengaysa.

Pragmatikada biz kundalik hayotda metaforalardan foydalanganimizda (masalan, «Vaqt – oltin»), mantiqan «yolg'on» gapiramiz (chunki vaqt metall emas). Lekin pragmatika buni «yolg'on» emas, balki ma'noni kuchaytirish deb tushuntiradi.

Tasavvufda sufiylar dunyoni «majoz» (ko'prik) deb atashadi. Ular ishlatadigan «May», «Gul», «Layli» obrazlari ham zohiran «yolg'on» (chunki gap ichimlik yoki ayol haqida ketmayapti), lekin tasavvuf buni botinan eng yuksak Haqiqatga olib boruvchi vositadir deb tushuntiradi.

Pragmatikada so'zlovchining nima degani emas, nima maqsadda aytgani muhim. Tasavvufda Navoiy «Lison ut–tayr»ni shunchaki qushlar haqida ertak aytish uchun yozmagan. Uning maqsadi (illokutsiyasi) – **o'quvchining qalbini o'zgartirish. Bu yerda «ertak»** – shakl, «hidoyat» – maqsad (illokutiv akt) hisoblanadi. Ikkala tizim ham yuzadagi ma'noga aldanib qolmaslikka o'rgatadi. Pragmatika bizni jamiyatda odamlarni to'g'ri tushunishga, gap tagidagi gapni anglashga o'rgatsa, tasavvuf bizni koinot va **o'zligimiz tagidagi «Ilohiy ma'no»ni – mazmunni anglashga o'rgatadi.**

Tasavvufdagi timsollarni tushunmasdan turib, Navoiy, Rumiy yoki Attor ijodini to'liq anglab bo'lmaydi.

May mast qiluvchi ichimlik emas, balki «ilohiy ishq» va zavq timsoli hisoblanadi. Soqiy esa inson qalbiga shu ishqni quyuvchi pir (ustoz) yoki Allohning o'zidir. Mayxona esa – ibodatxona yoki orifning qalbi. U yerda dunyoviy tashvishlardan voz kechilib, faqat Yaratganning ishqi bilan mast bo'linadi.

Sham va parvona munosabatida parvona – oshiq (solik), sham — ma'shuq (Alloh). Parvonaning o'zini shamga urib halok qilishi – «Fani filloh» (Allohda yo'q bo'lish), ya'ni o'z «men»idan voz kechib, ilohiy «nur»ga qovushishdir.

Gul va bulbul munosabatida bulbul – ilohiy go'zallik sog'inchida nola qilayotgan inson ruhi, gul esa – Allohning jamoli.

Jaloliddin Rumiy ijodida nay – **o'z vatanidan (qamishzordan) yulib olingan va asliga qaytishni istab ingrayotgan inson ruhining ramzidir.**

Tasavvufda timsollar ishlatilishining ikkita asosiy sababi bor. Birinchisi ma'noning o'ta kengligi, ya'ni ilohiy tushunchalar inson so'zlariga sig'maydi. Ramz esa so'zdan ko'ra ko'proq narsani his qildiradi. Ikkinchisi sir saqlash hisoblanib, tasavvuf ahli «sir»ni noahllardan (ma'noni tushunmaydigan, faqat zohirga qaraydiganlardan) yashirishni istashgan yoki bizningcha, Mashrab, Mansur Hallojlarga o'xshab qolmaslikdan qochish maqsadidir.

Bu tizimda inson ruhining safari (sayr-u suluk) ko'pincha mashaqqatli yo'l yoki voha izlayotgan karvon timsolida tasvirlanadi. Tasavvufda inson qalbi oynaga o'xshatiladi. Bu oynaning vazifasi — Ilohiy nurni (Allohning jamolini) aks ettirish. Biroq bu yerda bir nechta muhim shartlar bor. Avvalo, qalbni poklash kerak. Chunki oyna zanglagan yoki chang bo'lsa (ya'ni inson gunohlarga, dunyoviy hirslarga botgan bo'lsa), unda haqiqat aks etmaydi. Sufiyning asosiy maqsadi – **o'z qalb oynasini riyozat va zikr bilan «musaffo» qilishdir.**

Tasavvufdagi ramzlar bir-birini to'ldiruvchi tizimni hosil qiladi. Chunki timsollar mantiqqa emas, qalbga murojaat qiladi. M., «Men Allohni juda sog'indim»-degan gapdan ko'ra, «Men Vatanidan ayrilgan nay kabi ingrayapman» deyish inson ruhiyatiga kuchliroq ta'sir qiladi.

Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» (Qush nutqi) dostonidagi timsollar olamiga kirsak, bu asar – inson ruhining kamolot sari bosgan yo'lini qushlar sayohati orqali ko'rsatib bergan buyuk xarita ekanligini anglaymiz. Dostondagi har bir qush – insonning ma'lum bir nuqsoni yoki fe'l-atvorini anglatuvchi timsoldir. Ularning maqsadi – afsonaviy Simurg' (Haqiqat – Alloh) podshohni topish.

Hudhud (Sassiqpopishak) – yo'l boshlovchi, Pir (ustoz) timsoli. U boshqa qushlarni g'ofillikdan uyg'otib, yo'lga boshlaydi.

Bulbul – dunyoviy, o'tkinchi go'zallikka (Gulga) oshiq inson timsoli. U «Menga shu gulning ishqi yetadi, boshqa olam kerak emas», deb yo'ldan qolmoqchi bo'ladi.

To'ti – umrboqiylik (obi hayot) izlagan, lekin faqat tashqi ko'rinishga va chiroyli so'zlarga berilgan inson.

Tovus – jannatni sog'ingan, lekin Yaratganning o'zini emas, balki faqat u beradigan rohat-farog'atni (mukofotni) istovchi kishi.

O'rdak – poklik da'vo qiladigan, lekin suvdan (moddiy dunyo lazzatlaridan) chiqqisi kelmaydigan, «ibodatim shu suv ichida» deydigan zohid.

Qushlar Simurg'ga yetish uchun yettita mashaqqatli vodiydan o'tishlari kerak edi. Bu inson qalbining yuksalish yo'lidir:

1. Talab vodiysi (Izlanish).
2. Ishq vodiysi (Muhabbat).
3. Ma'rifat vodiysi (Haqiqatni anglash).
4. Istig'no vodiysi (Ehtiyojsizlik, dunyodan uzilish).
5. Tavhid vodiysi (Birlik — hamma narsa Xudodan ekanini bilish).
6. Hayrat vodiysi (Lollik, hayratda qolish).
7. Faqru fano vodiysi (O'zini yo'qotish va Ilohga qavushish).

Dostonning eng go'zal ramzi «Simurg'» siri his-

oblanadi. Yo'lga chiqqan minglab qushlardan faqat 30 tasi (Simurg') oxirgi manzilga yetib keladi. Ular podshoh Simurg'ning saroyiga kirganlarida va ko'zguga boqqanlarida, unda faqat o'zlarini ko'radilar. Ma'nosi – Simurg' (30 qush) aslida ularning o'zlari edi. Ya'ni, inson o'zligini anglasa, o'z qalbini poklasa, haqiqatni o'z ichidan topadi. Ko'rib turganimizdek, birgina qush obrazi orqali Attor butun boshli psixologiya va falsafani tushuntirib bergan. Bugungi kun odami ko'pincha shu ikki holat o'rtasida muvozanat izlaydi. «O'rdak» fe'lli insonlar moddiylik bandilaridir. O'rdak – suvsiz yashay olmaydigan qush. Tasavvufda suv – moddiy dunyo, boylik va qulaylik ramzi. Bugungi ko'rinishi – faqat karyera, uy-joy, mashina va jismoniy rohatlar ketidan quvib, ruhiyatni unutgan kishilar. Ular «Mening hamma narsam yetarli, ibodatim ham shu ishim», deb o'zlarini ovutadilar, lekin ruhiy yuksalish (parvoz) haqida o'ylamaydilar. Ularning muammosi **o'rdak suvda yaxshi suzadi, lekin Simurg' tomon** – yuksak tog'larga ucha olmasligi, qanotlari og'irlashib qolganligini tushunmaslikdadir.

«Tovus» fe'lli insonlar shaklbozlardir. Tovus o'zining go'zal patlari bilan faxrlanadi va doim Jannatni sog'inadi, chunki u vaqtida jannatdan quvilgan. Bugungi ko'rinishi – diniy yoki ma'naviy amallarni faqat mukofot (Jannat) uchun yoki xo'jako'rsinga qiladiganlardir. Ular uchun ichki mohiyatdan ko'ra, tashqi «patlar» – chiroyli kiyinish, jamiyatdagi obro' va dindor bo'lib ko'rinish muhimroq. Ularning muammosi – Allohning o'zini emas, U beradigan ne'matlardan umidvor bo'lishdir. Bu esa chin ishq emas, balki «savdogarlik»dir. Ikkalasi ham insonning o'zi va jamiyat uchun xavfli. Bu qushlarning har ikkisi ham «Men» (nafs) tuzog'iga tushgan. O'rdak o'z rohatiga (nafsiga) asir. Tovus o'z chiroyi va kelajakdagi rohatiga (kibriga) asir.

Bugungi davrda pragmatik nigoh juda zarur. Chunki biz aytgan pragmatika nuqtayi nazaridan, ramzlardagi mubolag'a ham, lof ham «Graysning sifat kategoriyasi» (yolg'on gapirmaslik qoidasi) ni ataylab buzishdir. Lekin nega biz buni yomon ko'rmaymiz? Chunki kommunikativ effekt zaruriyati tufayli biz uni to'g'ri qabul qilamiz. Agar men «Juda ko'p kutdim» desam, bu oddiy axborot. Agar «Kutaverib sochim oqardi» desam (mubolag'a), bu mening ichki holatimni aniqroq yetkazadi va ta'siri kuchliroq bo'ladi. Shuningdek, estetik zavq olamiz. Lof – bu inson xayolotining chegarasizligini ko'rsatuvchi bir musobaqa. O'zbek xalq og'zaki ijodidagi «Lofchilar» musobaqasini eslang. U yerda kim ko'p «yolg'on» gapirishi emas, kim chiroyliroq va aqlliroq bo'rttirishi muhim. Tasavvufda ham mubolag'a bor, lekin u «ilohiy mastlik» holatida aytiladi. Masalan, Mansur Hallojning «Ana al-Haq» (Men Haqiqatman – Xudoman) deyishi zohiran eng katta mubolag'a yoki lofdek tuyulishi mumkin, lekin botinan u «Fano» holatidagi haqiqat edi.

Bizning kundalik hayotimizda mubolag'a yoki lof ko'proq ishlatilganligini kuzatamiz. M., reklamalarda uchraydigan «Dunyodagi eng zo'r ichimlik» degan ibora mubolag'ami yoki zamonaviy «lof?» Odatda odamlar «haqiqatga o'xshab kiyingan» mubolag'ani (chunki u aldaydi) xavfliroq deb hisoblashadi, lekin biz birinchisini – ya'ni lofni xavfliroq deb bilamiz. Bu nigohning ham o'ziga xos mantiqiy va pragmatik asoslari bor. Keling, nima uchun lof xavfliroq bo'lishi mumkinligini tahlil qilamiz.

Hayotdagi reallik tuyg'usining yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Lof mantiqni butunlay chetga surib qo'yadi. Agar inson doimiy ravishda lof olamida yashasa yoki lofga tayansa, unda voqelikni obyektiv baholash qobiliyati susayadi. Mubolag'ada har holda reallikning «izi» saqlanib qoladi, lofda esa aloqa butunlay uziladi. Hayotda ishonchsizlik muhiti yaratilib qolganga o'xshab qoladi. Lof ochiq bo'rttirish bo'lgani uchun, u ommaviy tus olsa, jamiyatda «hech kim hech kimga ishonmaydigan» holat yuzaga kelishi mumkin. So'zning qadri bor bo'lgan nuqta qolmaydi, chunki hamma narsa «tuya kiradigan qovun» darajasida tasvirlana boshlanadi. Hayotda intellektual «tuzoq» kuchayib ketadi. Lof o'z mahorati va jozibasi bilan insonni mahliyo qilib qo'yadi. Mubolag'ani fosh qilish oson (shunchaki o'lchab ko'rish kifoya), lekin lof – bu butun boshli virtual dunyo. U insonni haqiqiy muammolardan chalg'itib, xayoliy zafarlar bilan ovutib qo'yishi mumkin. Balki shuning uchun ham xalqimizda «Lofchining gapiga laqqa tushma» degan ogohlantirish bordir. Bu bizning qarashlarimiz.

Demak, bugungi tilshunoslikda har qanday hodisa mentallik kasb etib, u yoki bu jihati bilan bog'liqlikni yuzaga keltiradi va butunlikni hosil qiladi. Bugungi ilmiy gorizont butun va bo'lak munosabatdorligini qayta baholashni talab qilmoqda. Bu esa alohida tadqiqot kerakligining va yangi mo'tadillikni izohlashning zaruratidir.

Rezyume. Maqolada pragmalingvistika bilan bog'liq bo'lgan sillogizm, mo'tadillashuv, sinergetika, germenevtika va pragmatik adabiyotshunoslik sohalari antropotsentrik nazariya asosida tadqiq etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Unda pragmalingvistika bilan bog'liq sohalarning umumiyliklari va xususiyliklarning yuzaga chiqishini pragmatik tahlil orqali aniqlashtirish mumkinligi tadqiq etilgan.

Резюме. В статье представлены способы изучения областей силлогизма, умеренности, синергетики, герменевтики и прагматического литературоведения, связанных с прагмалингвистикой, на основе антропоцентрической теории. Рассматривается возможность уточнения возникновения общих черт и специфики областей, связанных с прагмалингвистикой, посредством прагматического анализа.

Rezume. The article shows ways to study the fields of syllogism, neutralization, synergetics, hermeneutics, and pragmatic literary studies related to pragmalinguistics based on anthropocentric theory. It explores the possibility of clarifying the emergence of commonalities and specificities of fields related to pragmalinguistics through pragmatic analysis.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

DISGRAFIYAGA XOS XATOLARNING YOSHGA BOG'LIQ DINAMIKASI

Abdullajonova Madina To'lanboy qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Til va nutq masalalari, nutqiy faoliyat, xususan, yozma nutq faoliyatining shaxs rivojlanishiga ta'siri masalasi hamisha tadqiqot markazida bo'lib kelgan. Sababi borliqni anglash, tafakkur qilish, ilm egallash, asrlar davomida to'plangan bilimlarni avlodlarga uzatish va eng muhimi, o'zaro muloqot jarayonida yozma nutq faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozma nutq og'zaki nutqdan farqli ravishda avval boshidanoq ongli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. To'g'ri, yozish har qancha maktab ta'limi bilan bog'lanmasin, uning ildizlari erta bolalik davriga borib taqaladi. Bolaning ilk chizgilari borliqni anglashga bo'lgan dastlabki belgilardan biri sifatida baholanishi zarur. Shunga qaramay, haqiqiy yozma nutq jarayonining birinchi bosqichi yozuv o'zlashtirish tushunchasi bilan bog'lanib, bola harflarni tovushlarning yozuvdagi belgisi sifatida qabul qila olganida boshlanadi. Yozuv o'zlashtirish jarayoni har doim ham bir tekisda va oson kechmaydi. Sababi, til murakkab belgilar tizimi. Bu tizimni egallash uchun bolada fonematik idrok, fonematik tahlil, vizaul analiz-sintez jarayonlari hamda grafomotor qobiliyat yetarli darajada shakllanishi lozim. Aks holda, yozuv o'zlashtirish jarayoni samarasiz kechadi va ta'limning keyingi bosqichlarida disgrafiya singari murakkab yozma nutq buzilishlariga olib keladi.

Disgrafiya doimiy va takrorlanuvchi xatolar oqali namoyon bo'ladigan yozish jarayonining qisman buzilishidir. Disgrafiyada harflarning almashtirilishi, tushirilishi, so'z tarkibining umuman buzib yozilishi, shaklan bir-biriga o'xshash harflarning chalkashtirilishi, agrammatizmlar hamda harflar shaklining nomutanosibligi singari bir qator xatolar kuzatiladi. E'tiborli jihati, bu xatolar imlo qoidalarini yetarlicha egallay olmaslik bilan ham, aqliy zaiflik yoki eshitish va ko'rishga aloqador nuqsonlar bilan ham bog'liq emas. Tadqiqotchi olimlar McCloskey va Rappning ta'kidlashicha, disgrafiya nafaqat yozuv faoliyatining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki bolaning umumiy ta'lim faoliyatini ham ma'lum darajada cheklaydi[1].

Disgrafiya doirasida olib borilgan aksariyat tadqiqotlar uzoq muddatli bo'lib, bu muammo doirasida ishonchli dalillarni taqdim etish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Jumladan, Hamstra-Bletz va Blote tomonidan olib borilgan tadqiqot davomida 121 nafar niderlandiyalik boshlang'ich sinf o'quvchilari 5 yil davomida kuzatilgan. Tadqiqot jarayonida ushbu

[1] McCloskey M., Rapp B. Developmental Dysgraphia: An Overview and Framework for Research // Cognitive Neuropsychology. – 2017. – Vol. 34, № 3–4. – P. 66.